XALQ DEPUTATLARI BO‘STON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 19-fevral VII-5-22-1-19-K/25 Bo‘ston tumani

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 28-yanvardagi “Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari faoliyatini namunali tashkil etish to‘g‘risida” KQ-51-V-sonli qaroriga muvofiq xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining eng yaxshi tajribalarini boshqa hududlarda ham ommalashtirish, namunali Kengashlarni e’tirof etish yo‘lga qo‘yilgan, xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashi faoliyatini tashkil etish, samaradorligini yanada oshirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 28-yanvardagi “Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari faoliyatini namunali tashkil etish to‘g‘risida”gi KQ-51-V-sonli qarori asos va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashi faoliyatini tashkil etish mezonlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Bo‘ston tumani hokimligi (M.Gaziyev):

2025-yil yakuniga qadar xalq deputatlari tuman Kengashi faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlash choralarini ko‘rsin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati tuman hokimligining ijtimoyi tarmog‘ida hamda rasmiy veb-sayti orqali xalq deputatlari tuman Kengashi faoliyatini tashkil etish borasidagi ishlarning bajarilishi jarayonlarini keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



NOSIROVA
SANABARXON
ABDINABIYEVNA

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani
Kengashining
2025-yil 19-fevraldagi
VII-5-22-1-19-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashlari faoliyatini tashkil etish MEZONLARI

Mamlakatimizda xalq hokimiyatchiligi asoslarini yanada kuchaytirish maqsadida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga ko‘ra hokimlar ya tuman Kengashining vakolatlari bir-biridan ajratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi "Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora_tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-28-sonli Farmoni mahalliy darajada davlat hokimiyatini transformatsiya qilishga, tom ma’noda xalqchil tizimni joriy etishga qaratilgan muhim siyosiy islohotlarning mantiqiy davomi bo‘ldi. Mazkur Farmon bilan O‘zbekiston mahalliy boshqaruvi tarixida ilk marotaba mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini yangi model - "Kuchli Kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim" tamoyili asosida isloh qilishga qaratilgan qator qoida va vazifalar belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 28-yanvardagi “Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari faoliyatini namunali tashkil etish to‘g‘risida”gi KQ-51-V-sonli qarorida belgillangan qoida ya vazifalar ijrosini ta’minlash doirasida 2025-yil ikkinchi yarim yillikda xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashi (keyingi o‘rinlarda tuman Kengashi deb yuritiladi) faoliyatini namunali yo‘lga qo‘yish maqsad qilindi. Tuman Kengashi faoliyatini namunali yo‘lga qo‘yishda quyidagi mezonlar asosida tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

1. Tuman Kengashi faoliyatini tashkiliy-huquqiy jihatdan tartibga solish:

- tuman Kengashi reglamentini tasdiqlash;
- tuman Kengashi doimiy komissiyalari to‘g‘risida nizomni tasdiqlash;
- tuman Kengashi kotibiyati to‘g‘risida nizomni tasdiqlash;
- tuman Kengashi ish yuritish yo‘riqnomasini tasdiqlash;
- tuman Kengashi doimiy komissiyalari tarkibini shakllantirish;
- partiya guruhlarini tashkil etish;
- tuman Kengashi va uning doimiy komissiyalari ish rejalari ishlab chiqilishi hamda tuman Kengashi qarori bilan tasdiqlanishi;
- ish rejalari ijrosi hamda buni tasdiqlovchi hujjatlar (bosma yoki elektron);
- tuman Kengashining har bir deputati uchun yig‘ma jild tayyorlash hamda unda deputat faoliyatiga doir ma’lumotlarni yig‘ib borish;
- tuman Kengashi deputatlari va kotibiyati xodimlarining xorijiy mamlakatlarga shaxsiy masalalar bo‘yicha chiqishi tartibini tasdiqlash, ushbu hujjat bilan deputatlarni tanishtirish, tartibga amal qilish;
- tuman Kengashi deputatlarini odob-axloq qoidalarini tasdiqlash, ushbu hujjat bilan deputatlarni tanishtirish.

2. Tuman Kengashi qarorlarini qonunchilik va yuridik texnika qoidalari asosida qabul qilish:

- tuman Kengashi qarorlari loyihalarini sessiya muhokamasiga kiritishdan oldin tegishli tartibda kelishish, zarur hollarda muhokama uchun “Regulation. gov. uz” platformasiga joylashtirish;

- tuman Kengashi tomonidan qabul qilingan qarorlarni huquqiy ekspertizadan o‘tkazish;

- tuman Kengashining normativ tusdagi qarorlarini tegishli adliya organi tomonidan ekspertizadan o‘tkazish;

- tuman Kengashi qarorlarini qabul qilishga asos bo‘luvchi hujjatlarning to‘liq bo‘lishini ta’minlash (tegishli doimiy komissiya qarori (bayonnomasi), ma’ruzalar, axborotlar va hokazo);

- tuman Kengashi sessiyasida qabul qilingan qarorlarni " Kengash. gov. uz" elektron tizimiga joylashtirib borish.

3. Tuman Kengashining qonunlar muhokamasi hamda targ‘iboti bo‘yicha faoliyati, qonunchilikka doir takliflarni tayyorlash:

- Oliy Majlis Senati qo‘mitalari tomonidan taqdim etilgan qonunlarni tegishli doimiy komissiyada muhokama qilish;

- taqdim etilgan qonunlar bo‘yicha takliflar ishlab chiqish hamda Oliy Majlis Senatining tegishli qo‘mitasiga kiritish;

- tuman Kengashi tomonidan qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflarni tayyorlash hamda Oliy Majlis Senatiga taqdim etish;

- tuman Kengashi deputatlari tomonidan yangi qonunlar mazmun-mohiyati yuzasidan aholi o‘rtasida targ‘ibot-tushuntirish ishlarini olib borish, ommaviy axborot vositalarida chiqishlar qilish.

4. Tuman Kengashi sessiyalarida hisobot (axborot)larni eshitish hamda muhokama qilish:

- tuman Kengashi sessiyasida hisobot (axborot)larni eshitish masalasini ish rejasida aks ettirish;

- tuman Kengashi sessiyasida hisobot (axborot)larni eshitishdan oldin dastlabki tarzda tegishli doimiy komissiyada muhokama qilish;

- hisobot (axborot)larni eshitish yakunlari bo‘yicha qaror qabul qilishda tegishli mansabdorlarning faoliyatiga baho berish, aniq muddat belgilangan vazifalarni ko‘zda tutish;

- hisobot (axborot)larni eshitish bo‘yicha barcha hujjatlarning (ma’lumotlar, ma’ruzalar, qarorlar va hokazo) to‘liq bo‘lishini ta’minlash.

5. Tuman Kengashi deputatlarining mahalliy budjet, hududni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni shakllantirishdagi ishtiroki, ular ijrosi boyicha samarali nazorat o‘rnatish:

- tuman Kengashi deputatlari tomonidan aholi bilan muloqot davomida ko‘tarilgan, "mahalla yettiligi", sektor bilan hamkorlik doirasida taqdim etilgan muammolar va ularning yechimi bo‘yicha takliflar tayyorlash hamda hududni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni, mahalliy budjetni shakllantirishda inobatga olish uchun mahalliy ijro etuvchi hokimiyatga kiritish;

- hududni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni xatlovdan o‘tkazib, hisobot yilida amalga oshiriladigan loyihalar ustidan samarali nazoratni amalga oshirish rejasini ishlab chiqish hamda tasdiqlash, tuman Kengashi deputatlarini mahallalarga "manzilli" biriktirish;

- tuman Kengashi deputatlari tomonidan "mahalla yettiligi" bilan birgalikda loyihalar ijrosini o‘rganib borish, muammoli masalalarni aniqlash va tuman Kengashiga kiritib borish;

- aniqlangan muammoli masalalarni tuman Kengashi sessiyalarida muhokama qilib borish hamda ularning yechimi bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar belgilash;

- tuman Kengashi huzurida kambag‘allikni qisqartirish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha komissiya tuzish, komissiya tomonidan har oyda ushbu masala bo‘yicha mutasaddi tashkilotlar rahbarlarining axborotlarini muhokama qilish;

- yuqori darajada hal etiladigan muammolarni xalq deputatlari viloyat Kengashiga taqdim etib borish.

6. Tuman Kengashi tomonidan nazorat-tahlil tadbirlarini amalga oshirish, mahalliy budjet mablag‘larini maqsadli yonaltirish:

- tuman Kengashi va doimiy komissiyalar ish rejalarida nazotat-tahlil tadbirlarini amalga oshirishni belgilash hamda ijrosini ta’minlash;

- tuman Kengashi doimiy komissiya huzurida ekspertlarni jalb etgan holda ishchi guruh tuzish, nazorat-tahlil tadbiri doirasida o‘rganishni amalga oshirish hamda natijalari bo‘yicha tahliliy ma’lumot tayyorlash;

- nazotat_tahlil tadbirlarining doimiy komissiya majlislarida, tuman Kengashi sessiyasida, shuningdek xalq deputatlari viloyat Kengashi bilan birgalikda qo‘shma majlisda muhokama qilish;

- tuman Kengashi deputatlari tomonidan mahalliy budjet loyihasiga kiritish uchun takliflar tayyorlash hamda tuman hokimligiga kiritish;

- mahalliy budjet qo‘shimcha manbalarini qonunchilikda belgilangan tartibda hamda maqsadli yo‘naltirish.

7. Kengash va deputat so‘rovini yuborish va uning natijalari, murojaatlar bilan ishlash samaradorligi:

- qonunchilikda belgilangan tartibda Kengash va deputat so‘rovlarini yuborish;

- Kengash va deputat so‘rovlariga tegishli mansabdor shaxs tomonidan o‘z vaqtida asoslantirilgan javob berilishi bo‘yicha monitoring olib borish;

- Kengash so‘rovlari, zarur hollarda, deputat so‘rovlari natijalarini tuman Kengashi sessiyalarida muhokama qilish;

- Kengash va deputat so‘roviga o‘z vaqtida yoki noto‘g‘ri javob berilgan holatlar mavjud bo‘lganda qonunchilikda belgilangan tartibda choralar ko‘rish;

- tuman Kengashi deputatlarining qabul kunlari jadvalini ishlab chiqish hamda shu asosda qabullar o‘tkazish;

- tuman Kengashi deputatlariga kelib tushgan murojaatlarni o‘rnatilgan tartibda ko‘rib chiqish;

- murojaatlarni ko‘rib ohiqish natijadorligi.

8. Reglament hamda odob-axloq qoidalariga rioya etish:

- tuman Kengashi faoliyatini reglament talablari asosida tashkil etish;

- tuman Kengashi sessiyalarini qonunchilikda belgilangan tartib asosida chaqirish hamda o‘tkazish;

- tuman Kengashi sessiyalari qaror va bayonnomalarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish, hujjatlarning to‘liqligini ta’minlash;

- tuman Kengashi doimiy komissiyalari majlislarini belgilangan talablar asosida o‘tkazish va hujjatlarni rasmiylashtirish;

- tuman Kengashi deputatlari tomonidan odob-ahloq qoidalariga rioya etish;

- tuman Kengashi deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum etish holatlari va bu borada qaror qabul qilishda qonunchilikka rioya etish.

9. Hujjatlar bilan ishlash jamoatchilik bilan aloqalar, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash:

- tuman Kengashiga kelib tushgan hamda yuborilgan hujjatlarni ro‘yxatga olish, ushbu jarayonni raqamlashtirish;

- tuman Kengashi sessiyalariga ommaviy axborot vositalarini taklif etish, ular uchun press-relizlar tayyorlash;

- tuman Kengashi sessiyalarini ommaviy axborot vositalari yoki internet jahon axborot tarmog‘i orqali, shu jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoritish;

- tuman Kengashi deputatlarining ommaviy axborot vositalarida va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlarini tashkil etish, hududdagi voqea-hodisalarga nisbatan odob-axloq qoidalari doirasida munosabat bildirib borishini ta’minlash;

- tuman Kengashi veb-saytini yaratish hamda doimiy ravishda yangilab borish;

- tuman Kengashi deputatlari tomonidan o‘z saylovchilari bilan uchrashuvlar o‘tkazib, deputatlik faoliyati haqida axborot berib borishini tashki1 etish.

10. Tuman Kengashining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash:

- tuman Kengashi faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish (bino yoki xizmat xonalari, bayroq, gerb va hokazo), mebel jihozlari bilan ta’minlash;

- tuman Kengashi kotibiyati xodimlarini zamonaviy kompyuter vositalari, texnikalar (printer, skaner, nusxa ko‘chirish apparati, telefon va hokazo) bilan ta’minlash, internet jahon axborot tarmogoiga ulash;

- bankda hisob-raqamga, muhr va tamg‘aga, pochta manziliga, integratsiyalashgan va himoyalangan axborot almashish tizimiga, foto-video texnikalariga, xo‘jalik va maishiy inventarga va boshqa moddiy-texnik resurslarga ega bo‘lishini ta’minlash;

- Konstitutsiya, davlat boshqaruvi sohasiga oid adabiyotlar, uslubiy-amaliy qo‘llanmalar bilan ta’minlash.

11. Tuman Kengashi kotibiyatini malakali kadrlar bilan ta’minlash:

- tuman Kengashi kotibiyatini oliy ma‘lumotli kadrlar bilan to‘ldirish, ularning malakasini oshirib borish, kadrlar zaxirasini shakllantirish;

- tuman Kengashi kotibiyati xodimlarining ish tajribasi va staji, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, o‘z ustida ishlashi;

- yuksak ma’naviyatli bo‘lib, atrofdagilarga namuna bo‘la olishi.